

***Mahkamov Shohruh Sarvar o'g'li***

*Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston milliy universiteti Jizzax filiali,*

*O'zbekiston, [mahkamov@jnuu.uz](mailto:mahkamov@jnuu.uz)*

**Annotatsiya:** davlatni tushunishdagi hilma-xillik, davlatga oid qarashlarni shakllantirgan davr bilan bog'liqdir, boshqacha qilib aytganda, jamiyat taraqqiyoti, uning onggi va tafakkuri darajasi bilan bog'liq bo'lган ma'lumotlar berilgan.

**Ka'lit so'zlari:** Siyosiy hokimiyat, texnologiya, Davlat boshqaruvi, Boshqaruv, innovatsion sikl, ishlab chiqarish.

Davlatga ta'rif berish murakkab vazifa bo'lib, bir necha yuz yilliklar davomida insonlar davlat nima, u nima uchun kerak, nega mavjud, kabi savollarga javob topishga harakat qilib kelishmoqda. Bundan tashqari davlat qay tariqa vujudga keladi, uning mohiyati, jamiyat va odamlar hayotida tutgan o'rni qanday degan masalalar yuzasidan munozaralar har yangi avlod tadqiqotchilari, ya'ni davlatshunos olimlar oldida muqarrar ravishda turadi.

Kishilik jamiyati tarixida davlat paydo bo'lishi bilan ushbu fenomen haqida munozaralar ham boshlanib, olimu-allomalar «davlatning o'zi nima?», «uning mohiyati nimada?» kabi savollarga javob berishga hozirgi kungacha urinib kelishmoqda. Biroq, mutloq murakkab ijtimoiy-siyosiy hodisa bo'lган davlatga ta'rif berish, uning mohiyatini chuqur anglash oson kechmagan[1].

Davlatni tushunishda, unga bo'lган katta qiziqishga qaramasdan, hamon yakdillik yo'q. bunga sabab...

- Avvalo, davlatni tushunishdagi hilma-xillik, davlatga oid qarashlarni shakllantirgan davr bilan bog'liqdir, boshqacha qilib aytganda, jamiyat taraqqiyoti, uning onggi va tafakkuri darajasi bilan bog'liq.

- Ayni paytda, davlatning tushunchasini aniqlashdagi plyuralizm, bir

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

jihatdan odamlarning davlatni o'zicha – har xil tushunishi bilan, ikkinchi tomondan esa, davlatning o'zining ijtimoiy hodisa sifatida murakkabligi bilan tavsiflanadi[2].

- Bundan tashqari, davlat atamasi turli ma'nolarda ham ishlataladi va bu holat uni tushunishdagi turlichalikni keltirib chiqaradi.

Bunga asoslab quyidagi atamalarni keltirilsa maqsadga muoviq bo'ladi (1-rasm).

### **Davlat atamasi uch xil ma'noda qo'llanadi:**

a) davlatli - tashkillashgan hamjamiyat ma'nosida;

b) davlat hokimiyati ma'nosida;

v) davlat organlari tizimi ma'nosida.

#### *1-rasm: Davlat atamasi qo'llanilishi*

Shunday qilib, davlatning hodisa sifatida murakkabligi, uning turfa talqini va tushunchasining turlichaligini belgilaydi. Shu bois turli davrlarda davlatni turlicha tushunish mavjud. Davlatni ta'riflashda sovet davri yuridik fikri sinfiylik nuqtai-nazari bilan yondoshganligi bilan xarakterlanadi. Unda davlat «sinfiy jamiyatning siyosiy tashkiloti» sifatida talqin etilgan. Keyinchalik, davlatni ta'riflashda umumijtimoiy jihatni ko'rsatish tomon siljish boshlandi va sinfiylikka berilgan urg'u asta-sekin umumijtimoiy jihat tomonga surila bordi.


Keyingi paytlarda davlatga quyidagi ta'rifga yaqin ta'rif berish ancha keng tarqagan: «davlat bu – o'z hokimiyatini mamlakatning butun hududi va aholisiga tarqatadigan, maxsus boshqaruv va majburlov apparatiga ega bo'lgan, hamma uchun majburiy qonun-qoidalar chiqaradigan va suverenitetga ega bo'lgan jamiyatning yagona siyosiy tashkilotidir».

G'arb nashrlarida ta'kidlanishicha, kapitalizmning kuchayishi natijasida, transnatsional kompaniyalar shunday qudratli iqtisodiyot, ijtimoiy-siyosiy institutlarni shakllantirmoqdaki, ular o'z imkoniyatiga ko'ra ba'zi davlatlardan oshib tushadi va aslida «turli millat va davlatlar ustida turadi».

Ma'lumki, jamiyatda hokimiyatning turlari ko'p, xususan, oiladagi oila boshlig'ining hokimiyati, xo'jayinning xizmatkori ustidan hokimiyati, mulkdorning iqtisodiy hokimiyati, guruhdagi sardor hokimiyati, diniy hokimiyat

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

va boshqalar. Biroq bu hokimiyat ko‘rinishlarining birontasi ham butun jamiyatga tarqalmaydi, xalq nomidan ish yuritmaydi, ya’ni ommaviy xarakterga ega emas[3].



*2-rasm: Davlatning bosh jihatlari*

Ommaviy hokimiyat hududiy prinsipga binoan tarqaladi, unga taaluqli hududdagi barcha aholi bo‘ysunadi (2-rasm).

Siyosiy hokimiyat – jamiyatning farovonligini ta’minalash maqsadida xalqni boshqarishni amalga oshiradigan hokimiyat. Ommaviy hokimiyat maxsus odamlar tabaqasi – mutaxassislar tomonidan amalga oshiriladi va u soliqlar hisobiga faoliyat yurgizadi.


Yuzlab mingylliklarni o‘z ichiga olgan insonyat tarixida dastlabki davlatlar va shaxarlarning tashkil topishi, xunarmandchilik va savdoning rivojlanishi, yozuvning kelib chiqishi - nisbatan keyinroq yuzaga kelgan hodisalardir. Davlatchilik jahon tarixida miloddan avvalgi IV ming yillikning ohirlarida vujudga kelgan bo‘lib, insoniyat tamaddudining so‘nggi 5 ming yili bilan bog’lanadi.

Qadimgi davlatlar o‘z rivojlanish bosqichlarida, turli xususiyatlar va tarixiy qonuniyatlarga ega bo‘lgan. Dastaval, ilk davlatlar xujalikning ishlab chiqaruvchi shakllari - dehqonchilik va chorvachilik qayerda oldin rivoj topgan bo‘lsa, o’sha yerda vujudga kelgan.

Boshqaruvning ilk bosqichlari qadimgi zamonlarga borib taqaladi. Boshqaruv tamoyillari va vazifalari turliy ko‘rinishlarda bo‘lib, ularning shakllanishi va rivojlanish bosqichlariga jamiyat rivojining ichki yonunyatlari yani ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning yuqori darajasi, xususiy mulkchilikning paydo bo‘lishi, xunarmandchilik, tovar ayrboshlash va savdoning tez rivojlanishi kabilar

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

bilan birga, tashqi omillar - kuchayib borayotgan siyosiy qarama-qarshiliklar va xarbiy to'qnashuvlar ham o'z ta'sirini ko'rsatgan (3-rasm). Ushbu ma'lumotlardan kelib chiqgan holatda davlat boshqaruving kelib chiqishini davlatchilikning shakillanish asoslarini quyidagicha tuzushimiz mumkin[6].



### *3-rasm: Davlatchilikning shakllanish asoslari*

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak davlat boshqaruvi insoniyat tamaddudining so'nggi 5 ming yili bilan bog'lanadi va hozirgi zamon boshqaruv tizimidan tubdan farq qoladi

### **Foydalanilgan adabyotlar**

1. Karimov I.A. Kuchli davlatdan kuchli jamiyat sari T., "Sharq", 1998
2. Karimov I.A. Mamlakatni modernizatsiya qilish va iqtisodiyotimizni barqaror rivojlantirish yo'lida – Toshkent: O'zbekiston, 2008.
3. Махкамов, Ш. (2023). Теоретические основы базы данных (мб) и системы управления базами данных (мббт). Информатика и инженерные технологии, 1(1), 90-94.
4. Mahkamov Sh. Davlat boshqaruv tizimida innovatsion texnologiyalarni qo'llash bosqichlari / Mahkamov Shohruh Sarvar o'g'li - International scientific-practical conference - 2023. № 1, - 275-277 b.

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

---

5. Аликулов, С. Т., & Махкамов, Ш. С. (2018). ДИДАКТИЧЕСКАЯ КОМПЕТЕНТНОСТЬ ПЕДАГОГА. In Развитие интеллектуально-творческого потенциала молодежи: из прошлого в современность (pp. 150-152).
6. Махкамов, Ш. (2024). Davlat boshqaruв tizimining vujudga kelishi hamda davlat va uning moxiyati. Новый Узбекистан: наука, образование и инновации, 1(1), 379-382.
7. Махкамов, Ш. С. (2024). ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В СИСТЕМУ ГОСУДАРСТВЕННОГО УПРАВЛЕНИЯ КАК ФАКТОР ЕЁ РАЗВИТИЯ И СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ.
8. Toxir, A., & Lobar, A. (2023). Mobil ilovalar orqali yosh bolalarda uchraydigan nutq buzilishlarini bartaraf etish. In Uz-Conferences (Vol. 1, No. 1, pp. 906-911).
9. Norqo'ziyev, Q. (2023). Mobil robotlar uchun yo'lni rejallashtirish algoritmi. Research and Implementation. извлечено от <https://fer-teach.uz/index.php/rai/article/view/746>